

KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FARAVON HAYOT GAROVI!

КОНСТИТУЦИЯ – ГАРАНТИЯ СВОБОДНОЙ И БЛАГОПОЛУЧНОЙ ЖИЗНИ!

THE CONSTITUTION IS THE GUARANTEE OF A FREE AND PROSPEROUS LIFE!

To‘xtayev Diyorbek Hayit o‘g‘li

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalari instituti,

“Yurisprudensiya” ta’lim yo‘nalishi, I-bosqich talabasi.

toxtayevdiyorbek384@gmail.com, +998973005501

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda asosiy qonunimiz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, milliy va xalqaro normativ-hujjatlarda belgilangan me’zonlar orqali fuqarolarning huquqlari, erkinliklari hamda ularning qonuniy manfaatlari ta’milnishi hamda himoya qilinishi - jamiyatda farovon va erkin hayotning kafolati bo‘lib xizmat qilishi haqidagi fikrlar bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье ведётся речь об основном законе нашей страны который является гарантией благополучия и свободной жизнь в обществе и обеспечивает и защищает права, свободы и законные интересы граждан посредством критерииев, определенных в Конституции Республики Узбекистан, а также в национальных и международных нормативных документах.

Annotation: In this article, the main law in our country is the provision and protection of the rights, freedoms and legal interests of citizens through the criteria defined in the Constitution of the Republic of Uzbekistan, national and international normative documents - it serves as a guarantee of a prosperous and free life in society stated.

Kalit so‘zlar. O‘zbekiston Konstitutsiyasi, prezident farmoyishi, qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar, huquq va erkinliklar, manfaatlari, xalqaro hujjatlar, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’rifiy, shaxsiy, siyosiy, inson huquqlari.

Ключевые слова. Конституция Узбекистана, указ президента, законы, нормативно-правовые документы, права и свободы, интересы, международные документы, экономические, социальные, культурные, образовательные, личные, политические, права человека.

Key words. Constitution of Uzbekistan, presidential decree, laws, normative legal documents, rights and freedoms, interests, international documents, economic, social, cultural, educational, personal, political, human rights.

Kirish. So‘ngi yillarda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’naviy hayotning turli sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va bu borada erishilayotgan natijalarni mustahkamlashda yangi tahrirdagi Konstitutsianing ahamiyati va o‘rni katta. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabrdagi XII-chaqiriq O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining XI-sessiyasida qabul qilingan.

Hozirgi amaldagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil 30-aprelda amalga oshirilgan siyosiy jarayon - referendum orqali qabul qilinib, 65% ga yaqin moddalarga o‘zgartirish va qo‘sishimchalar kiritildi. Mazkur o‘zgarishlar inson huquqlarini mustahkamlash, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, ijtimoiy himoya vaadolatni ta’minalashga qaratilgan. Shu bilan birga, Konstitutsianing yangi tahriri Muqaddima, 6 bo‘lim, 27 bob, 155 ta moddadan iborat. Yangi Konstitutsiyada huquqiy munosabat subyektlarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda kafolatini ta’minlovchi yangi institut “Advokatura” alohida bob sifatida qo’shib qo‘yildi. “Advokatura”ga alohida konstitusiyaviy statusning berilishi davlatimizda amalga oshirilayotgan islohotlari shuningdek, davlat ahamiyatiga molik masalalarda inson manfaatlari ustun turishi, insoning farovonligini ta’minalashda uning

huquqlari Konstitutsiyaviy prinsiplar asosida himoya qilinishini ta'minlaydi. Xususan, asosiy qonunimizning muqaddimasida - inson uning hayoti, erkinligi, sha'ni oliv qadriyat hisoblanib, insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni barpo etish borasidagi hozirgi va kelajak avlod oldidagi yuksak mas'uliyatimizni anglagan holda konstitutsiyani qabul qilinishi, avvalambor ushbu konstitutsianing qanchalik xalqning milliy anan'analari, urf-odatlari xalqning orzu-umidi va kelajagining yaqol kafolati qilib ko'rsatilgan. Ushbu keltirilgan normalarda insoning huquqlari davlatning asosiy qomusida belgilangan barcha sohalardagi keng imkoniyatlardan; jumladan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, marifiy hamda ilmiy yutuqlardan foydalanish mumkinligini ko'rsatib beradigan yagona manba hisoblanadi.

Asosiy qonunimiz orqali berilgan huquqlar ichida ajralib turadigan eng asosiy huqlardan biri insoning va siyosiy huquqlari bo'lib, konstitutsiyamizning 36-moddasida: "O'zbekiston fuqarolari davlat va jamiyat ishlarini boshqarishda boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqlariga ega. Bunday ishtirok etish o'zini o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik shaklda shakllantirish, shuningdek, davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik vositasida amalga oshiriladi deb belgilangan.

Bu ham o'z mohiyatdan shuni bildiradiki, fuqarolarning siyosiy huquqlarini mustahkamlash bilan bir qatorda mamlakat ijtimoiy va siyosiy hayotida qatnashish imkonini beradi. Ushbu huquq va erkinliklar jamiyat va davlat boshqaruvida qatnashish huquqi, saylov huquqi, qonunlarga muvofiq jamoat birlashmalariga uyishish, mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar o'tkazish, ommaviy harakatlarda ishtirok etish, ariza, taklif va shikoyatlar berish orqali davlat organlari, muassasalari yoki xalq vakillariga murojaat qilish singari huquqlarni o'z ichiga oladi.

Shaxsiy huquqlar qatoriga asosiy qonunimizning 7-bobida keltirilgan "Shaxsiy huquq va erkinliklar" bobining 25-35-moddalarini o'z ichiga olib, ushbu huquqlar qatoriga fuqarolarning yashash huquqi, insoning sha'ni va qadr-qimmati hamda erkinlik va shaxsiy daxlsizlik huquqi, aybsizlik prezumpsiya, fikrlash so'z

e’tiqod erkinligi va axborot izlash, olish, tarqatish huquqi, vijdon erkinligi kabi huquqlarni o‘z ichiga oladi. Buning ichida 25-moddasida, boshqa huquqlarga qaraganda ajralib turadigan oliy huquq bu yashash huquqidir. Yashash huquqi har bir insoning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi. Ushbu moddada fuqarolarning yashash huquqi qonuniy tomonlama muhofaza etilganligi hamda boshqa insonlar tomonidan uning hayotiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmasligi shuningdek, inson qadrining darajasining qanchalik balandligi bilan bir qatorda inson hayotining konstitutsiyaviy qonunlar hamda demokratik prinsplarga asosanlanib himoya qilinishi ham davlatimizdagi insonlarning huquqlari va osoyishtaligi qay darajada ta’milanganligini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 17-oktyabr 2024-yildagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi F-53-son farmoyishida belgilangan “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!” degan hayotiy shiorning mohiyati va ahamiyati yangi tahrirdagi Konstitutsianing 21-moddasi asosida “Har bir inson o‘z shaxsini erkin kamol toptirish huquqiga ega. Hech kimga uning roziligesiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emas.” deb belgilanganligi bilan, inson huquq va erkinliklari sohasida mutlaqo yangi bosqichga o‘tilgani ohib beriladi. Mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini ta’minalash, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, nuroniylar, xotinqizlar va yoshlarga doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, oila, onalik, bolalik va otalikni himoya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati va o‘rnii juda katta bo‘lib, bu amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning barchasini xalqning yaxshi hayot kechirish, turmush sifatini yaxshilash, madaniy yutuqlar bilan birgalikda zamonamizning ilmiy yutuqlaridan foydalanish uchun muhim jihat va ahamiyat kasb etadi. Bularning kafolati O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator moddalarida belgilangan. Ushbu moddalar

O‘zbekiston Konstitutsiyasi 2-bo‘limining “Inson va fuqarolarning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” (19-64- moddalari) da qayd qilingan.

Ammo shu bilan bir qatorda fuqarolar ularga berilgan huquqlaridan imkoniyatlaridan kelib chiqib foydalana oladimi degan savol paydo bo‘ladi. Bugungi kunda biz bilamizki jamiyatimizning huquqiy ong va huquqiy madaniyat darajasi talab darajasida emas. Shuning bilan birga, aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga doir davlatimiz tomonidan olib borilayotgan ishlar samaradorligini oshirish, ularning huquqiy bilimini yanada takomillashtirish maqsadida barcha oliy ta’lim muassasalarida “Huquqshunoslik” kafedrasini tashkil etish, ushbu kafedrada “Huquqshunoslik”, “Konstitutsiyaviy huquq”, “Inson huquqi” kabi fanlarni mukammal o‘rgatishni yo‘lga qo‘yish belgilandi.

Insonning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlari bir qator rasmiy va xalqaro hujjatlarda kafolatlanishi va himoya qilinishi keltirib o‘tilgan. Jumladan, O‘zbekiston Konstitutsiyasi, Inson huquqlari va umumjahon deklaratsiyasi, Inson huquqlari va asosiy erkinliklarini himoya qilish to‘g‘risida Yevropa konvensiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakt hamda shu singari ko‘plab milliy va xalqaro normativ-huquqiy hujjatlar - inson huquqlariga bo‘lgan fuqarolarning erkin va farovon hayotini ta‘minlovchi hujjatlar sifatida e‘tirof etilish mumkin. Xalqaro hujjatlar sifatida inson huquqlarining qay darajada himoyalanganligini biz, (“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”)ning 7-moddasida,barcha odamlar qonun oldida tengdir va hech bir tafovutsiz qonun bilan teng himoya qilinish huquqiga egadir. Barcha odamlar ushbu Deklaratsiyaga zid bo‘lgan har qanday kamsitishdan va shunday kamsitishga undaydigan har qanday gij-gijlashdan teng himoya qilinish huquqiga egadir deb ko‘rsatilgan norma qay etilgan. Ushbu jumlada biz shuni tushunishimiz mumkinki, insonning qonun bilan himoya qilingan huquqlarini kamsitilishi, hech qaysi davlat organlari yoki ma‘lum bir shaxs tomonidan cheklanishi hamda boshqa insoni qadrini tushuruvchi harakatlar sodir qilinishi ushbu normaning harakatga kelishi uchun asos bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, mamlakatimizdagi har bir fuqarolar o‘z huquqlarini va qonuniy manfaatlari

himoya qilish maqsadida sud hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilish huquqi mavjud. Har kim O‘zbekiston qonunchiligiga va xalqaro shartnomalarga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalardan foydalanib bo‘lingan bo’lsa, insonning huquq va erkinliklarini himoya qiliuvchi xalqaro organlarga murojaat etishligi qayd etilgan. Yuqorida ta‘kidlangan normada ham inson huquqlarini himoya qilish nafaqat davlat darajasida inson huquqlarini himoya qilinganligi, balkim xalqaro organlar tomonidan himoya qilinishi insonning qadri va uning hayotiy farovonlik daxlsizligini ta‘minlashi - fuqarolarning erkin va faravon hayotini ta‘minlovchi asosiy normalar rolini bajarib kelmoqda.

Shuni ta‘kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro inson huquqlarini umume‘tirof etuvchi hujjatlar - fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va munosib hayot kechirishlari hamda faravon turmush sifatini, o‘zining adolatli me’zonlari orqali kafolatlaydigan va ta‘minlab beradigan huquq manbalari sifatida e‘tirof etiladi. Bo‘lajak huquqshunos sifatida aytishim mumkinki, Asosiy Qonunimizda mustahkamlangan me’yorlar jamiyatimizda fuqarolarning huquq va erkinliklari lozim darajada ta‘minlashi qat’iy mustahkamlab qo‘yilganligi natijasida yurtimizda qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolat tamoyillari amalga oshirilmoqda, fuqarolar tinch va farovon hayot kechirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

- 1) Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, T; “Yuridik adabiyot publish” 2023.
- 2) 2.”Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” Sh.Mirziyoyev, <https://president.uz/>
- 3) T.Ya.Yuldasheva, S.Isomiddinov O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYADA YOSHALAR XUQUQ VA ERKINLIKHLARI KAFOLATI //Science and innovation. – 2024. – T. 3. – №. Special Issue 20. – S. 311-313.
- 4) Inson huquqlari boyicha O‘zbekiston Respublika Milliy markazi. <https://www.insonhuquqlari.uz/>